

2024-YILGI O‘ZBEKISTON PARLAMENT SAYLOVIDA SIYOSIY PARTIYALAR ISHTIROKI VA VAZIFALARI

Tilaboldiyeva Marg‘uba Qo‘ldash qizi
Andijon davlat pedagogika instituti magistri

“Ishonaman, bo‘lg‘usi saylovlar xalqaro saylov standartlari va milliy saylov qonunchiligiga to‘la muvofiq holda, kuchli raqobat muhitida bo‘lib o‘tadi”.

Shavkat Mirziyoyev

Annotatsiya: 2024-yilgi O‘zbekiston parlament saylovi – O‘zbekistonda parlament quyi palatasi va hududiy vakillik organlari a‘zoligi uchun o‘tkazilgan saylovda siyosiy partiyalar ishtiroki, órni va vazifalari haqida so‘z ketadi.

Аннотация: Парламентские выборы в Узбекистане 2024 года - участие, роль и задачи политических партий в проводимых в Узбекистане выборах в члены нижней палаты парламента и региональных представительных органов.

Abstract: The 2024 Uzbekistan parliamentary election - the participation, role and tasks of political parties in the election held in Uzbekistan for the membership of the lower house of the parliament and regional representative bodies.

Kalit so‘zlar: siyosiy partiya, saylov, parlament, markaziy saylov komissiyasi, saylov uchastkasi, e-saylov.

Ключевые слова: политическая партия, выборы, парламент, Центральная ссыловская комиссия, избирательный участок, электронные выборы.

Key words: political party, election, parliament, Central Election Commission, polling station, e-election.

Saylov o‘zi nima?

Saylov – vakillarni tanlashning demokratik usuli. Saylov saylovchilarga ular uchun qonunlar ishlab chiqadigan, hukumatni tuzadigan va muhim qarorlar qabul qiladigan vakillarni tanlashda yordam beradi. Shunday qilib, saylov – bu odamlar o‘z rahbarlarini muntazam ravishda tanlashi va agar xohlasa, ularni almashtirishi mumkin bo‘lgan mexanizmdir. Saylov turli ko‘rinishda bo‘ladi. Unda aholi qatnashishi yoki ularning vakillarigina ishtirok etishi mumkin. Saylov ochiq yoki yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi. Qaysi organ saylanayotganiga qarab parlamentga yoki prezidentlikka saylash, parlamentning umumiy yoki bir qismi uchun saylov o‘tkazilishiga qarab yalpi yoki qisman saylov bo‘lishi mumkin.

Saylovlar tarixi

Ilk saylovlar miloddan avvalgi VI asrda demokratiyaning vatani bo‘lgan Qadimgi Yunonistonda, keyinchalik Rim Respublikasida bo‘lib o‘tgan. Afinada ham,

Rimda ham demokratik jarayonda ozod erkak fuqarolargina qatnasha olgan, xolos. Ayollar va qullarda ovoz berish huquqi bo'lmagan.

Tarixchilarning aytishicha, Afinada saylovlar juda kam bo'lgan, chunki qadimgi afinaliklar saylovni mansabdor shaxslarni tanlashning eng demokratik usuli deb o'ylamagan. Ular demokratiya faqat boylarga emas, balki oddiy odamlarga ham ishlarni boshqarish imkonini berishi uchun nomzodlarni tasodifiy tanlash kerak deb hisoblagan.

Demokratiya va zamonaviy saylovlar vatani hisoblangan, qadimiy Yunoniston va Rimda saylovlar qay tarzda o'tkazilgan? Xalqning xohish istagi inobatga olinganmi yoxud barchasi yuqori amaldorlar qo'lida bo'lganmi? Ushbu savollarga javob berishga harakat qilamiz.

Qadimiy davrlarda insonlar o'z yetakchilarini ovoz berish orqali aniqlagan. Umumxalq kengashlarida xalq o'z yetakchilarini saylagan. Shu tariqa hukmronlikning dastlabki ko'rinishlari shakllangan. Bu esa ibtidoiy davrning o'ziga xos demokratiyasi edi.

Bugungi barcha demokratik davlatlarda o'tkaziladigan saylovlar uzoq tarixga ega. Zamonaviy saylovlar tarixi, mamlakatning siyosiy hayotiga o'z hissasini qo'shgan va xalq yig'ilishlarida barcha ozod fuqarolar ishtirok etgan. Qadimgi Yunoniston va Rimda saylovlarda xalq istagi mamlakat qonunchiligining asosini tashkil qilgan.

Yunonistonda ochiq ovoz berish va qur'a tashlash yordamida maxfiy ovoz berish usuli qo'llanilgan. Saylov "varaqaasi" vazifasini loviya doni bajargan: oq rangli loviya "ijobiy" javobni, qora rangli loviya "salbiy" (qarshi) javobni bildirgan.

Qadimiy Afinada yana bir maxfiy ovoz berish usuli mavjud bo'lgan. Unga ko'ra, faoliyati davomida demokratiya asoslariga xavf solinishi ehtimoli kuzatilayotgan davlat arbobini xalq mamlakatdan tashqariga quvg'in qilish huquqiga ega bo'lgan. Quvg'in bo'yicha ovoz berish jarayonida ishtirok etayotgan fuqaroga sopoldan yasalgan buyum taqdim etilgan. Fuqaro Afinadan quvg'in qilinishi kerak bo'lgan odamning ismini sopol buyumga yozgan va buyumni shahar maydonida tashkil etilib, qo'riqlanadigan maxsus joyda qoldirgan. Qaysi davlat arbobining nomzodi ko'p ovoz olsa, o'sha shaxs quvg'in qilingan.

Qadimiy Rimda saylovoldi tadbirlari saylovlar o'tkazilishidan ancha ilgari boshlangan. Nomzod hukumat a'zolariga saylovlarda ishtirok etishi to'g'risidagi xohishini bildirgan. Shundan so'ng saylovoldi tadbirlari boshlangan. Saylovoldi tadbirlari quyidagicha o'tkazilgan: nomzod oq libos kiyib (oq rangli libos nomzodning xalq oldida vijdoni toza ekanligini anglatgan), saylovchilardan unga ovoz berishlarini va qo'llab-quvvatlashlarini so'rab, bozor va maydonlarga yo'l o'lgan. Saylov kuni saylovchilar maxsus taxtachalarga o'zlari ovoz bergan nomzod ismini yozib katta savatga tashlagan.

2024-yil 26-iyulda Markaziy saylov komissiyasi saylovni o'tkazish bo'yicha tegishli qaror qabul qilgan[1]. Komissiya 2024-yil 21-avgustdagi qaroriga ko'ra mamlakatdagi 5 ta siyosiy partiyaga saylovlarda ishtirok etish uchun ruxsat berildi[2]. 2024-yil 27-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda Xalq deputatlari mahalliy kengashlariga saylovlar bo'lib o'tdi[3]. Saylovda 5 ta siyosiy partiya ishtirok etdi: O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi, O'zbekiston Ekologik partiyasi, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston „Adolat“ sotsial-demokratik partiyasi. Saylovlar „Mening tanlovim – Obod Vatanim“ shiori ostida o'tkazildi.

Markaziy saylov komissiyasi nomzodlarning ro'yxatini 2024-yil 22-sentyabr kuni e'lon qildi. Shu kundan targ'ibot jarayonlari boshlanib, 2024-yil 25-oktyabr kuniga qadar davom etdi. Deputatlarning 75 nafari bevosita majoritar, 75 nafari proporsional tizim bo'yicha siyosiy partiyalarga berilgan ovozlar asosida saylandi. Saylov jarayonlari „E-saylov“ axborot tizimi orqali tashkil etildi. Qonunchilik palatasining 150 nafar deputati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi]]ning 65 nafar deputati, 208 nafar tuman (shahar) deputati saylandi. Partiyalar tomonidan deputatlik o'rinlari uchun 90 mingga yaqin ishonchli vakillar ishtirok etdi.

2024-yil 28-oktyabr kuni Markaziy saylov komissiyasi raisi ishtirokida Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlarga saylovlarning dastlabki natijalariga bag'ishlab o'tkazilgan matbuot anjumanida saylov jarayonlarida 15 mln 27 ming 529 nafar saylovchi ovoz berganligini ma'lum qildi [4]. Barcha saylov uchastkalarida saylovchilar uchun qonunchiligimizda belgilangan sharoitlar yaratildi. Joylarda 5 ming 770 ta okrug va 11 ming 28 ta, jumladan, Xorijda istiqomat qilayotgan O'zbekistonliklar uchun 40 ta xorijiy mamlakatda 57 ta saylov uchastkasi tashkil etilib, ushbu uchastkalarda 140 ming 388 nafar saylovchi ovoz berdi[5].

Saylov jarayonini kuzatishda MDH, ShHT, Turkiy davlatlar tashkiloti, shuningdek, YeXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosining to'laqonli missiyasi tarkibida 850 nafardan ziyod xorijiy va xalqaro kuzatuvchilar ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oila a'zolari bilan birgalikda poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi 59-saylov uchastkasiga tashrif buyurib, ovoz berishda ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari 59-saylov uchastkasiga kelgan odamlar bilan suhbatlashdi. O'z yurti va yashayotgan hududi taqdiriga daxldorligini his qilib, saylovlarda faol qatnashayotgan fuqarolarga minnatdorlik bildirdi.

Xorijiy kuzatuvchilar, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan ham muloqot qildi. Ular saylovlar ochiq, yuqori saviyada o'tayotganini, aholining ijtimoiy-siyosiy

faolligi oshganini ta'kidlashdi. Nuroniylar mamlakatimizga tinchlik-farovonlik, Prezidentimizga sog'lik-omonlik tilab duolar qildi.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 128-moddasida fuqarolar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga ega ekani belgilangan. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlangan.

O'zbekiston tarixida ilk bor Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovlari aralash saylov tizimi, ya'ni majoritar-proporsional tizim asosida o'tkazildi.

Saylov qonunchiligi ilg'or demokratik standartlarga mos ravishda tubdan takomillashtirildi. Jumladan, saylov organlarining Markaziy saylov komissiyasi boshchiligidagi yangi tizimi joriy etildi, jamiyat hayotida xotin-qizlarning rolini oshirish maqsadida siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlar ko'rsatishda ayollarning ulushi kamida 40 foiz bo'lishi belgilangan edi.

Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashi raisi Ulug'bek Inoyatov Toshkent shahrining Shayxontohur tumanidagi 427-saylov uchastkasida ovoz berdi.

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi yetakchisi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikeri o'rinbosari Alisher Qodirov ovoz berish uchun 116-saylov uchastkasiga bordi.

O'zLiDeP Siyosiy Kengashi Ijroiya qo'mitasi raisi, deputat, Spiker o'rinbosari Aktam Haitov Yunusobod tumanidagi 520-saylov uchastkasida bo'ldi.

Mirzo Ulug'bek tumanidagi 21-saylov uchastkasida "Adolat" SDP Siyosiy Kengashi raisi Robaxon Mahmudova ovoz berish jarayonida ishtirok etdi.

Ekologiya partiyasi raisi Abdushukur Hamzayev saylovda ovoz berish uchun poytaxtning Olmazor tumaniga bordi.

Yagona saylov okrugi bo'yicha Qonunchilik palatasiga saylovida deputatlik o'rinlari siyosiy partiyalar o'rtasida quyidagicha taqsimlandi:

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi – 26 ta deputatlik o'rni;

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi – 14 ta deputatlik o'rni;

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi – 13 ta deputatlik o'rni;

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi – 12 ta deputatlik o'rni;

O'zbekiston Ekologik partiyasi – 10 ta deputatlik o'rni.

Joriy yilgi saylovlarning yana bir e'tiborli jihati – bu jarayon ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari to'liq raqamlashtirilgan holda E-Saylov axborot tizimi orqali amalga oshirilganida namoyon bo'ldi. Mazkur axborot tizimi saylovlarning ochiqqligini yuqori bosqichga olib chiqdi. Mamlakatimizdagi saylovlar yuqori demokratik tamoyillar asosida, ochiq va shaffof tarzda o'tdi. Fuqarolar ham amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarga xayrixoh bo'lgan holda saylovlarda faol ishtirok etishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. „Mazmunan yangi va texnologik saylovlarga start berildi“. saylov.uz (2024-yil 26-iyul).
2. „O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovida ishtirok etuvchi siyosiy partiyalar“. saylov.uz (2024-yil 21-avgust). 2024-yil 17-sentyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2024-yil 17-sentyabr.
3. „Mazmunan yangi va texnologik saylovlarga start berildi“. saylov.uz (2024-yil 26-iyul).
4. „O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Raisi Zayniddin NIZAMXODJAYEVning Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlarga saylovlarning dastlabki natijalariga bag‘ishlangan MATBUOT ANJUMANIDAGI NUTQI“. saylov.uz.
5. „https://saylov.uz/oz/press_service_in/o-zbekiston-respublikasi-markaziy-saylov-komissiyasi-raisi-zayniddin-nizamxodjayevning-qonunchilik-palatasi-va-mahalliy-kengashlarga-saylovlarning-dastlabki-natijalariga-bag-ishlangan-matbuot-anjumanidagi-nutqi28-10“. saylov.uz.
6. Gazeta.uz